

**QO'LYOZMALARNI TAHQIQ QILISHDA BOSHLANG'ICH  
QADAMLAR**

**Erimmatova Zuhra Azimboy qizi,  
Erimmatova Fotima Azimboy qizi,**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

"Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi" o'qituvchilari

[zuhraerimmatova@gmail.com](mailto:zuhraerimmatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** So 'nggi yillarda mamlakatimizda boy ma 'naviy merosimizning ajralmas qismi bo 'lgan yozma manbalarni o 'rganish masalasi tez-tez urg 'ulanadigan mavzuga aylandi. Prezidentimiz 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to 'g 'risida "gi qarorida ajdodlarimizning ulkan ma 'naviy, ilmiy merosini har tomonlama chiqur o 'rganish bo 'yicha aniq ko 'rsatmalar belgilab berildi.

**Kalit so 'zlar:** manbashunoslik, qo 'lyozma, tahqiq, sharqshunos, kitob muallifi, muallif nusxasi.

**Abstract:** In recent years, the issue of studying written sources, which are an integral part of our rich spiritual heritage in our country, has become a frequently emphasized topic. In the decision of the President of April 16, 2020 "On measures to fundamentally improve the personnel training system in the field of Oriental studies and increase the scientific potential", the President clearly stated a clear vision for the comprehensive and in-depth study of the great spiritual and scientific heritage of our ancestors. instructions have been set.

**Key words:** source studies, manuscript, research, orientalist, book author, author's copy.

**Аннотация:** В последние годы в нашей стране все чаще поднимается вопрос изучения письменных источников, которые являются неотъемлемой частью нашего богатого духовного наследия. В постановлении Президента от 16 апреля 2020 года «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров в области востоковедения и повышению научного потенциала» Президент четко обозначил четкое видение всестороннего и глубокого изучения великого духовного и научного наследия наших предков. даны поручения.

**Ключевые слова:** источниковедение, рукопись, исследование, востоковед, автор книги, авторский экземпляр.

Ayni paytda har bir o 'ziga xos ilmiy-madaniy obida bo 'lgan arab, fors, turkiy tillardagi manbalarni tadqiq etish, tarjma qilish, eng asosiysi, xalqimizga sof holda yetkazish sharqshunoslар zimmasidagi dolzarb vazifa bo 'lib qolmoqda. Shu sababdan qo 'lyozmalarni o 'rganish va o 'rgatish bo 'yicha O'zbekistondagi oliy ta 'lim muassasalari va institutlar birdek xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillar davomida qo‘lyozmalarni o‘rganish va o‘rgatishga qaratilgan ilmiy kitoblar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar bu soha ishtiyoqmandlariga taqdim qilina boshlandi. Mazkur maqola ham qo‘lyozmalar haqida umumiy ma’lumot berish, bu sohadagi terminlar bilan ilmsevar talabalarni tanishtirishdan iborat.

## **KIRISH**

Qo‘lyozma – inson qo‘li bilan yozilgan asar. Uni hozirgi davrimizdagи o‘quvchilarga yetkazish uchun tahqiq qilsh lozim. Mazkur so‘z “tahqiq qilish” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, **حق الرجل القول** ma’nosida, ya’ni “kishi uni to‘gri deb hisobladi” degan ma’noda qo‘llaniladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, tahqiq qilishda, qo‘lyozmani katta e’tibor bilan tadqiq qilish hamda undan foyda chiqarish uchun ma’lum shartlar topilishi kerak. Tahqiq qilingan kitob nomi, muallifining ismi to‘g‘ri bo‘lishi, kitob haqiqatda unga tegishliligi tekshirilgan, muallif yozgan asl matnga yaqin bo‘lgan holda bo‘lishi talab qilinadi. Har bir qo‘lyozmada o‘rganilishi uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Kitob nomi o‘rganilishi;
2. Muallif ismi;
3. Kitobning muallifga tegishliligi;
4. Kitob matni tahqiqi imkon qadar muallifning matniga yaqin bo‘lishi.

Muallif nusxasini topish nodir hol, ayniqsa, to‘rtinchi asr boshlaridagi kitoblar va ularni o‘qish ko‘p mashaqqatli jarayondir<sup>1</sup>. Chunki, bu zamonlarda hatto, harflarga nuqtalar qo‘yilmagan. Bunday diakritik nuqtalarni qo‘ymaslik to‘qqizinchи asrgacha cho‘zilgan, buni o‘scha zamon olimlaridan biri Ibn Hajar rohimahullohni xatida ko‘riladi.

## **ASOSIY QISM**

Kitob nomini tahqiq qilish oson ish emas, ba’zi qo‘lyozmalar kitob nomidan xoli holda topiladi. Bunga quyidagicha sabablar bo‘lishi ehtimol qilinadi:

- 1) kitobning birinchi varog‘i yo‘qolgan bo‘lishi;
- 2) kitobi nomi noaniq, yashirin bo‘lishi;
- 3) ba’zan nusxasida kitob nomi ochiq ko‘rinib turadi-yu, voqealikka mos tushmaydi: qasddan kitob nomini soxtalashtirish, yoki e’tiborsiz o‘quvchiga nomi yo‘q kitob tushib qolganidan, kitob nomi o‘rniga duch kelgan unvonni qo‘yib qo‘yishligi yoxud bitta kitobni boshqa bir kitobni ustiga uni qismidan deb xayolan qo‘yishligi kabi holatlar faraz qilinadi.

Har bir qo‘lyozmaning muhaqqiqi ehtiyotkor bo‘lishi talab qilinadi. Kitob nusxasida yozilgan kitob nomi va muallifi mazkur asarning haqiqiy egasi deb hukm chiqarishga shoshilmasligi lozim. Gohida qo‘lyozmaning nusxasi muallif nomidagi matnga ega bo‘lmasligi mumkin. Lekin kitob nomi orqali boshqa kutubxonlardagi kitoblar ro‘yhati (fihristi) yordamida, yangi chop qilingan tarjima kitoblar, Yoqut Hamaviy kabi ulamolarning qomusiy asarlaridan ilmiy ma’lumot topish mumkin. Ko‘pgina hollarda harflarning noto‘g‘ri yozilishi muallif va u haqida ma’lumotlarning xato o‘qilishiga olib keladi. Misol uchun, **الحسين الحسن**, so‘zi shaklida, ismi **البصري** olib keladi.

<sup>1</sup> عبد السلام محمد هارون. تحقيق النصوص ونشرها. مكتبة الرازي، القاهرة، 1998م. ص42

shaklida, so‘zi خازار shaklida uchrashi mumkin. Shu sabadan, qo‘lyozmani tahqiq qilishda faqat bitta nusxaga suyanib qolmaslik talab qilinadi<sup>2</sup>.

Uncha tanilmagan asarning ma’lum muallifga nisbat berilishi to‘g‘riliqiga ishonish oson emas. Biror shaxsga nisbat berilishini qo‘llab quvvatlovchi dalillar topilishi lozim. Kutubxonalardagi fihristlarda, qomusiy ilmiy asarlarda, tazkira, manaqiblarda ham haqiqatda mos kelishi tekshirilishi muhaqqiq tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, tarixiy ma’lumotlar eng to‘g‘ri o‘lchovlardan sanaladi.

Kitob matnni muallif yozganidek sonda va sifatida saqlab qolgan holda tahqiq qilish va muallifning nusxasiga yaqin holatda saqlab qolish lozim. Matnni tahqiq qilishda zaruratsiz muallif uslubini o‘zgartirish, biror so‘z yoki harfni o‘zgartirmaslik, muhaqqiq rioya qilishi lozim bo‘lgan qoidalardandir. Albatta, tarix omonati taqoza qiladigan ilmiy omonatdir. Qo‘lyozma matni muallif haqida xulosa qilinadigan manba, uning yashagan davri va muhiti haqida xabar beruvchi, tarixiy ahamiyatga ega. Uni o‘zgartirish yoki xatosini to‘g‘rlash muallifning haqqiga rioya qilmaslik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Kuchli muhaqqiq kishida ikkita sifat omonatdorlik va sabr topilsa asarni risoladagidek o‘rganish oson bo‘ladi.

Agar muhaqqiq asarda biror xato topsa, uni hoshiyada yoki asar so‘ngida keltirib o‘tishi mumkin. Shu bilan birga, ba’zi mualliflar kitobida ilmli o‘quvchilar asarda xato topsa uni to‘g‘rlab ketishlariga ijozat bergen, misol uchun Ibn Sayyid Nasning “عيون الآخر” asari oxirida quyidagicha keladi:

”قد انتهى بنا الغرض فيما أوردناه إلى ما أوردناه، ولم نسلك بعون الله فيه غير الإقتصاد الذي قصدها. فمن عثر فيه على وهم أو تحريف أو خطأ أو تصحيح، فليصلاح ما عثر عليه من ذلك، وليس لك سبيل العلماء في قبول العذر هناك. من مر بخبر لم ذكره، أو ذكرت بعضه، فليضعه بحسب موضعه من التبويب، أو نسقه في الترتيب.<sup>3</sup>“

Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda, qo‘lyozmlarani o‘qish jarayonida bir qancha belgilarni kuzatish mumkin. Misol uchun: ض qo‘lyzomadagi gap o‘rtasida qo‘yilib, asl matndan ko‘chirilgan nusxa ekanligini ifodalaydi; ع [‘ayn] harfining bosh qismi كذا ظ لعله كذا“ ehtimol shunday” degan ma’noga, ba’zan asar hoshiya qismida kelib ظاهر“ so‘ziga ishora qiladi. Ba’zi hoshiyalarda ك harfini ko‘rish mumkin, bu esa “asl matnda shunday” degan ma’noga dalolat qiladi.

## XULOSA

Matnshunoslik asar matni tarixini o‘rganadi yoki bu matn ustida tadqiqot olib boradi. Bu asar aniq fanlarga, tarixga oid yoki badiiy asar bo‘lishi mumkin. Matn tarixini o‘rganish asarning g‘oyaviy-badiiy talqin va tahlili xolisona olib borilishini ta’minlaydi. Faqat ilmiy-tanqidiy matn yaratilgan taqdirdagina asarning har tomonlama mukammal tahlilini amalga oshirish mumkin.

<sup>2</sup> عبد السلام محمد هارون. تحقيق النصوص ونشرها. مكتبة الخانجي. القاهرة. 1998م. ص 44

<sup>3</sup> عبد السلام محمد هارون. تحقيق النصوص ونشرها. مكتبة الخانجي. القاهرة. 1998م. ص 48

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. عبد السلام محمد هارون. تحقيق النصوص ونشرها. مكتبة الخانجي. القاهرة. 1998 ص 42.
2. *Tekin Ş.* Eski türklerde Yazı, Kağıt, Kitap ve Kağıt Damgaları. İstanbul, 2015.
3. *Sirojiddinov Sh., Umarova S.* O'zbek matnshunosligi qirralari. Toshkent, 2015.
4. *Sodiqov Q.* Eski turkiy bitiglar. Toshkent, 2009.
5. *Hakimov M.* Sharq manbashunosligi lug'ati. Toshkent, 2013.
6. *Hasaniy M., Habibullaev A.* Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. Toshkent, 2012.